

ISSN 2181-922X

LANGUAGE & CULTURE

# UZBEKISTAN O'ZBEKISTON

# UZBEKISTAN

TIL VA MADANIYAT

KOMPYUTER  
LINGVISTIKASI

2024 Vol. 3 (6)

[www.compling.tsuull.uz](http://www.compling.tsuull.uz)

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

## KOMPYUTER LINGVISTIKASI

2024 Vol. 3 (6)

[compling.tsuull.uz](http://compling.tsuull.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:**

**Botir Elov**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

**Shahlo Hamroyeva**

**Mas‘ul kotib:**

**Oqila Abdullayeva**

### **Tahrir kengashi**

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Eshref Adali (Turkiya), [Viktor Zaxarov] (Rossiya), Vladimir Benko (Slovakiya), Ayrat Gatiatullin (Tataristan), Rinat Gilmullin (Tataristan), Murat O‘rxun (Turkiya), Suyun Karimov (O‘zbekiston), Abduvali Qarshiyev (O‘zbekiston), Muxammadjon Musayev (O‘zbekiston), Kamoliddin Shukurov (O‘zbekiston), O‘tkir Hamdamov (O‘zbekiston), Tal‘at Zuparov (O‘zbekiston), Bahodir Mo‘minov (O‘zbekiston), Faxriddin Nurullayev (O‘zbekiston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Muqaddas Abdurahmonova (O‘zbekiston), Elova Dilrabo (O‘zbekiston), Ruhillo Alayev (O‘zbekiston), Rasuljon Atamuratov (O‘zbekiston), Malika Abdullayeva (O‘zbekiston), Mannon Ochilov (O‘zbekiston), Xolisa Axmedova (O‘zbekiston), Zilola Xusainova (O‘zbekiston), Uldona Abdurahmonova (O‘zbekiston).

### **Jurnal haqida ma‘lumot**

“O‘zbekiston: til va madaniyat. Kompyuter lingvistikasi” seriyasi – Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning kompyuter lingvistikasi, jumladan, tabiiy tilga ishlov berish (NLP), o‘zbek tilining formal grammatikasi, korpus lingvistikasi, mashina tarjimasi, nutqni qayta ishlash tizimlari, intellektual tizimlar, kompyuter leksikografiyasi hamda lingvistik ontologiyalar kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

O‘zbek, turk, rus va ingliz tillarida yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O‘zbekiston: til va madaniyat. Kompyuter lingvistikasi” seriyasi 2023-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy.

**E-mail:** [kompling@navoiy-uni.uz](mailto:kompling@navoiy-uni.uz)

**Website:** [kompling.tsuull.uz](http://kompling.tsuull.uz)

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Chief editor:** Botir Elov  
**Deputy editor-in-chief:** Shahlo Hamroyeva  
**Responsible secretary:** Oqila Abdullayeva

### **Editorial board**

Shukhrat Sirojiddinov (Uzbekiston), Eshref Adali (Turkiye), [Viktor Zakharov] (Russia), Vladimir Benko (Slovakia), Ayrat Gatiatullin (Tataristan), Rinat Gilmullin (Tataristan), Murat Orhun (Turkey), Suyun Karimov (Uzbekistan), Abduvali Karshiyev (Uzbekistan), Mukhammadjon Musayev (Uzbekistan), Kamoliddin Shukurov (Uzbekistan), O'tkir Hamdamov (Uzbekistan), Tal'at Zuparov (Uzbekistan), Bahadir Mo'minov (Uzbekistan), Fakhridin Nurullayev (Uzbekistan), Zulkhumor Kholmanova (Uzbekistan), Muqaddas Abdurakhmonova (Uzbekistan), Elova Dilrabo (Uzbekistan), Ruhillo Alayev (Uzbekistan), Rasuljon Atamuratov (Uzbekistan), Malika Abdullayeva (Uzbekistan), Mannon Ochilov (Uzbekistan), Kholisa Akhmedova (Uzbekistan), Zilola Khusainova (Uzbekistan), Uldona Abdurakhmonova (Uzbekistan).

### **Information about the magazine**

"Uzbekistan: language and culture. "Computer Linguistics" series is an appendix of the academic journal "Uzbekistan: Language and Culture" in the list of scientific publications of the Higher Attestation Commission, in which computer linguistics, including natural language processing (NLP) of professors-teachers, doctoral students, intern-researchers, independent researchers, master's students, researches related to formal grammar of the Uzbek language, corpus linguistics, machine translation, speech processing systems, intelligent systems, computer lexicography and linguistic ontologies are published.

The magazine supplement is published four times a year.

Articles written in Uzbek, Turkish, Russian and English languages are accepted.

The journal also publishes book reviews, literature reviews, conference reports, and research project results.

The opinion of the authors may differ from the editorial point of view.

"Uzbekistan: language and culture. "Computer Linguistics" series has been published since 2023.

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi. Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent, Uzbekistan.

**E-mail:** [kompling@navoiy-uni.uz](mailto:kompling@navoiy-uni.uz)

**Website:** [compling.tsuull.uz](http://compling.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### **Talat Zuparov**

Word2vec metodi orqali matnlarni raqamlashtirish va mashinali o'qitish usullari orqali qayta ishlash.....6

### **Umidjon Yodgorov**

O'zbek tili frazemalarining morfologik shakli va variantlari tadqiqiga an'anaviy va korpus tahlili yondashuvi.....29

### **Go'zal Erkinjonova**

Fe'l so'z turkumiga oid birliklarning leksik-grammatik xususiyati.....49

### **Botir Elov, Maftuna Baratova**

Pos (part of speech) teglash usullari.....62

### **Zebo Qodirova**

Tibbiy atamalarni tur va sinflarga ajratishda ontologik tamoyillar.....78

### **Gulira'no Nuriddinova**

Tabiiy tilni qayta ishlashda eganing modellari.....90

### **Botir Elov, Maftuna Ahmedova**

N-gramlar asosida imloni tuzatish tizimini ishlab chiqish.....101

### **Mavluda Urazaliyeva**

Audiomatnlarni korpusga kiritish muammolari tahlili.....115

## CONTENT

### **Talat Zuparov**

Digitization of texts using the word2vec method and processing through machine learning techniques.....27

### **Umidjon Yodgorov**

The traditional and corpus-based approach to the study of morphological forms and variations of uzbek phraseology.....46

### **Go'zal Erkinjonova**

Lexical and grammatical characteristics of verbal word class units.....60

### **Botir Elov, Maftuna Baratova**

Pos (part of speech) tagging methods.....76

### **Zebo Kodirova**

Ontological principles in the division of medical terms into types and classes.....88

### **Gulira'no Nuriddinova**

Models of subject in natural language processing.....100

### **Botir Elov, Maftuna Ahmedova**

Development of a spell correction system based on n-grams.....113

### **Mavluda Urazaliyeva**

Analysis of problems in incorporating audio texts into a corpus.....124

## O'ZBEK TILI FRAZEMALARINING MORFOLOGIK SHAKLI VA VARIANTLARI TADQIQIGA AN'ANAVIY VA KORPUS TAHLILI YONDASHUVI

Umidjon Yodgorov<sup>1</sup>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tili frazeologik birliklarining morfologik shakllari va variantlilik an'anaviy va korpus tahlili yordamida o'rganiladi. Tadqiqotda til birliklariga, jumladan, frazeologik birliklarga xos bo'lgan variantlilik hodisasiga urg'u beriladi. Lingvistik korpuslardan foydalangan holda o'zbek tilidagi ko'plab frazeologik birliklarning morfologik shakllari va paradigmatic variantlari aniqlandi, bu esa an'anaviy lug'atlarda aks etmagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tili frazeologik birliklarida leksik va grammatik variantlilik kuchli ekanligi hamda bu o'z navbatida tilning boyishida katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, frazeologizmlarni tadqiq etishda an'anaviy lug'atchilik yondashuvlarining cheklanganligi va korpus tahlilining zaruriyati ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** *O'zbek frazeologiyasi, morfologik shakllar, variantlilik, an'anaviy yondashuv, korpus tahlili, leksik variantlilik, grammatik variantlilik, lingvistik korpuslar, frazeologik birliklar.*

**Iboralarda variantlanish.** Variantlanish – barcha til birliklariga, shu jumladan, frazeologik birliklarga ham mansub hodisa. Ko'p variantli iboralarning asosiy qismini ikki va uch variantli iboralar tashkil etadi. Umuman, frazeologik birliklarda variantlanish boshqa til birliklariga nisbatan kuchli bo'lib, bir iboraning variantlari soni o'ntagacha yetadi. Variantlanish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, lug'aviy ma'no birligi saqlanadi. Variantlanish iboraga xos yaxlitlikning o'zi doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqe bo'ladi. Aks holda, yo ibora yo'qqa chiqadi, yoki boshqa bir ibora barpo qilinadi.

---

<sup>1</sup>*Yodgorov Umidjon* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi.

**E-pochta:** [yodgorov@navoiy-uni.uz](mailto:yodgorov@navoiy-uni.uz)

**ORCID:** 0000-0001-6704-2879

Frazeologik variantlarda leksik va grammatik variantlar farqlanadi. Iboraning tarkibida mustaqil turkumdagi soʻz bilan ifodalangan komponentni oʻzgartirib hosil qilingan variantga *leksik variant* deyiladi. Bunda soʻz komponent: almashtiriladi, qoʻshiladi, tashlanadi. Bularndan eng murakkabi leksik almashtirish asosidagi variantlanish [Rahmatullayev, 1978. 13-15].

Ibora tarkibini grammatik oʻzgartirish bilan hosil boʻladigan variantga *grammatik variant* deyiladi. Iboraning tashqi grammatik qurilishiga (iborani kontekstga singdirish bilan) bogʻliq grammatik oʻzgarishlar variantlanish deb qaralmaydi. Jumladan, kontekstga singdirish munosabati bilan ot iboraning sonda, kelishikda oʻzgarishi, feʼl iboraning tuslovchi, egalik olib oʻzgarishi, mayl, zamon yasovchilarini olib oʻzgarishi variantlanish emas, balki *paradigmatik formasi* deyiladi [Rahmatullayev, 1978. 13-15]. Iboraning bunday varianti, aniqrogʻi, paradigmatik shakli tilda cheksiz boʻladi. Istalgan iborani til korpuslaridan qidirsak, uning yuzlab grammatik varianti yoki morfologik shakli uchraydi. Masalan: “achchigʻi kelmoq” iborasi Oʻzbek tili korpusidan qidirilganda uning quyidagi paradigmati aniqlandi:

achchigʻi keldi  
 achchigʻi kelib  
 achchigʻim keladi  
 achchigʻini keltiradigan  
 achchigʻi kelur  
 achchiqlangan kelinni  
 achchigʻini keltirdi  
 achchigʻing keladi  
 achchigʻi kelsa

achchigʻi kelgan  
 achchigʻi kelyapti  
 achchigʻi keladi-da  
 achchigʻi keladi  
 achchigʻim kelgan  
 achchigʻimni keltirdi  
 achchigʻlari kelgan-da  
 achchigʻi kelgandek

Frazeologik birlik yuqoridagi tip paradigmatik formalarida biror chegaralanishga ega boʻlsa, shunda grammatik variantlanish oʻrinli. Masalan, feʼl iboraning boʻlishli yoki boʻlishsiz shaklda kelishi (*koʻkka sovurdi va koʻkka sovurmadi*) umumiy holat boʻlib, grammatik variantlanish deb qaralmaydi. Shu bilan bir vaqtda, faqat bir aspektda ishlatiladigan, mavjud boʻladigan iboralar ham bor. Masalan, *alifni tayoq deya olmaslik* iborasi odatda boʻlishsiz aspektda ishlatiladi, baʼzan boʻlishli aspektda uchrab qoladi: *alifni tayoq deydigan* kabi. Endi buni frazeologik variant deb tan olish kerak. Tom maʼnodagi grammatik variantlar iboraning ichki grammatik qurilishida (iboraning kontekst bilan aloqador boʻlmagan qismlarida) sodir boʻladigan oʻzgarishlar natijasida yuzaga keladi. Jumladan, feʼl iboralarda nisbat (daraja) yasalishi va shu bilan bogʻliq holda yuz



beradigan grammatik o'zgarishlar shunday variantlanish turlaridan biridir. Masalan, *adab(i)ni bermoq* fe'l iborasi tarkibidagi fe'l so'z-komponent aniq darajada, tushum kelishigidagi so'z-komponent bilan to'ldiruvchili birikma hosil etib turadi. Xuddi shu ibora *adab(i) berildi* shaklida ham ishlatiladi. Nisbatning o'zgarishi iboraning ichki sintaktik qurilishini keskin o'zgartirib yuboradi: birikmaga teng holat gapga teng holatga o'tadi va shunga bog'liq boshqa qator grammatik-semantik o'zgarishlar yuz beradi [Rahmatullayev, 1978. 13-15].

Grammatik variantlanish ham, xuddi leksik variantlanish kabi, asosan ibora tarkibidagi biror grammatik qismni almashtirish, tushirib qoldirish yoki unga qo'shish bilan voqe bo'ladi. Grammatik variantlanishda o'ziga xos hodisa – so'z-komponentlarning joylanish tartibi asosida yuzaga keladigan variantlanish ham mavjud:

**1) almashtirish asosida paydo bo'ladigan variantlanish:**

*O'tirishga joy topolmaslik // o'tirgani joy topolmaslik* (bu yerda maqsad ravishdoshi yasovchisi **-gani** harakat nomi yasovchi **-sh** va jo'nalish kelishigi shakli bilan almashgan); *qo'yn(i)ni puch yong'oqqa to'ldirmoq // qo'ynini puch yong'oq bilan to'ldirmoq* (bu yerda kelishik shakli ko'makchi bilan almashgan);

**2) qo'shish asosida paydo bo'ladigan variantlanish:**

*holdan toymoq // holdan toydirmoq* (orttirma daraja qo'shilgan); *ko'ngl(i) bo'shadi // ko'ngl(i) bo'shashdi* (harakatning biroz kuchsiz voqe bo'lishini ifodalovchi affiks qo'shilgan);

**3) tushirib qoldirish asosida variantlashish:**

*ko'z(i) ilindi, ko'z ilindi* (egalik shakli tushib qolgan) [Rahmatullayev, 1978. 13-15].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, har bir iboraning variantini topish va uni lug'atga kiritish uchun uning nutqiy qo'llanishini katta dataset (aniqrog'i, til korpusi) asosida kuzatish kerak. Buni esa qo'lda amalga oshirish imkoni mavjud emas. Katta ma'lumotlar bilan ishlashga mo'ljallangan korpuslarda frazeologik birikmalarni teglash orqali har bir iboraning grammatik varianti yoki morfologik shaklini topishga imkon tug'iladi.

**Frazeologik birliklar tadqiqiga an'anaviy yondashuv.**

Jahon tilshunosligida turli tillarda frazeologik birliklarda variantlilik hodisasi tadqiq etilgan. Jumladan, U.Keulimjayeva qoraqalpoq va rus tillari frazemalarida variantlilikni o'rgangan [Keulimjayeva, 2022. 91-93]. A.V.Beloborodova "befarqlik" konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarda variantlilikni tahlil qilsa [Beloborodova, 2009. 27-29], R.B.Kamayeva zamonaviy tatar nasri materiallari

asosida frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari tahlilida variantlilikka qisman murojaat qilgan [Kamayeva, 2015. 236-244]. Tadqiqotchi zamonaviy tatar nasri namunalarida frazeologik birliklarning leksik, grammatik va kvantativ variantlari uchrashini aniqlagan hamda badiiy asarda frazeologik birliklar variantining qo'llanishi badiiy asar tilining boyishiga olib keluvchi omil ekanligi, muallif mahorati bilan bog'liqligi dalillangan [Kamayeva, 2019. 98-101]. Shuningdek, ingliz, rus va boshqa tillarda frazeologizmlarning variantliliği ham tadqiq obyekti bo'lgan [Dibrova, 1979. 192]. Masalan, ingliz tilida siyosiy mazmundagi idiomalarda variantlilik maxsus tadqiq etilgan [Dekatova, 2023. 47-55]. Paremiologik birliklarning variantliliği monografik planda o'rganilgan ishlar ham mavjud. Jumladan, S.I.Xun rus tili misolida tilida frazeologik variantlarning turlarini ko'rsatadi [Xun, 2007. 177]. L.M.Zinnatullina rus va ingliz tillarida ravishga xoslangan frazemalarning variantivligini qiyosiy aspektda tahlil qilgan [Zinnatullina, 2019. 17-25]. Y.Y.Titarenko, Y.Y.Balaskayalar rus tili va nutqidagi fe'l iboralarda aktuallik va variantlilik masalalasiga diqqat qaratishgan [Titarenko, 2022. 152-170]. T.N.Fedulenkovaning fikriga ko'ra, frazeologik birliklarda variantlilik masalasini o'rganishga e'tibor XX asrning II yarmida paydo bo'lgan [Fedulenkova, 2005. 62-65]. U G.Glinsonga tayanib, variantlilikni tadqiq etishning qiyinchiligi variantivlikning shakllanishi va hosil bo'lishi kabi hodisalarning o'zida ekanligini ta'kidlaydi. Variantlilik tilda bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va o'zaro kesishadigan taraqqiyot natijasida paydo bo'ladigan hodisadir [Glinson, 1959. 381].

Frazeologik variantlilik hodisasiga berilgan quyidagi ta'riflarni solishtiramiz:

1. "Frazeologik variantlar bu invariant frazeologik birlikning ma'no tarkibi va mazmunidagi, stilistik va sintaktik vazifalari farq qiluvchi turli ko'rinishidir, invariantning qisman leksik yoki morfologik o'zgarishi, so'zshakli yoki so'z tartibi bilan farq qiluvchi ko'rinishidir" [Kunin, 1964. 442].

2. Idiomaning struktur varianti deb tarkibi va tuzilishida jiddiy farq bo'lmagan frazeologik birliklarga aytiladi [Amosova, 1963. 100].

3. Frazeologik variantlar uslubiy va bo'yoqdorlik bilan farqlanib, turli kontekstda ularning maqbul varianti qo'llanadi [Avaliani, 1968. 72].

Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, frazeologik variantlar bir invariantning nutqiy ko'rinishlari bo'lib,


ular nutq uslubi hamda buyoqdorligiga qarab farqli matnlarda turli variantlarda uchraydi.

Y.Y.Titarenko, Y.Y.Balaskayalar frazemalarda variantlilikning quyidagi turlarini keltirib, shunday tasniflashadi [Titarenko, 2022. 152-170].

<b>Grammatik variantlar</b>	<b>Leksik-grammatik variantlar</b>	<b>Leksik variantlar</b>	<b>Sinonimlar</b>
<i>задирать нос / задрать нос</i>	<i>задирать нос — позадирать нос</i>	<i>задирать нос — подирать нос; поднимать нос</i>	<i>задирать нос — поднимать хвост; подирать хвост</i>
<i>сживать / сжить со света (со све ту)</i>	—	<i>сживать / сжить со света — сводить / свести со света</i>	<i>сживать / сжить со света — вгонять / вогнать в гроб</i>

**1-jadval. Frazemalarda variantlilik tasnifiga Y.Y.Titarenko, Y.Y.Balaskaya yondashuvi**

T.N.Fedulenkova variantlashish jarayonini quyidagicha tavsiflaydi [Fedulenkova, 2005. 62-65]



**1-chizma. Variantlashish jarayonini T.N.Fedulenkova tavsifi**

N.S.Sheyshenova qirg'iz tili frazemalarining variantlarini quyidagi misolda ko'rsatadi [Sheyshenova, 2008. 144-145]:

keleke shildiñ kiluu, ataşın taanituu; choñ enesin Ƴch korgondon kørsetƳƳ, ɵpkɵşƳn ƳzƳƳ	tilinen chan chigat, tili buuday kuurat, kulak meesin jeyt, meesin chagat, tilinde sɵɵƳ' jɵk.
--	---

N.S.Sheyshenovaning fikriga ko'ra, leksik-grammatik variantlar sinonimlardan ayni bir iboraning turli ko'rinishi ekanligi bilan farqlanadi. Shuningdek, N.S.Sheyshenovaning variativlik haqidagi tasnifi e'tiborimizni tortdi.

1. Komponent variantlilik	2. Shakliy variantlilik	3. Aralash variantlilik
kuru chechen, tamagin ayruu, bulbulday sayrayt, uzun eldin uchuna kiska eldin kiyrina jayuu.	jilandin kuyrugun basuu	ɵpkɵşƳn ƳzƳƳ

## 2-jadval. Frazemalar variantlilikiga N.S.Sheyshenova yondashuvi

A.V.Kunin "FBlarda turg'unlik bu – frazeologik darajasi turli xil aspektlarning o'zgarishlik hajmidir", deydi va u turg'unlik belgisi frazeologik birliklarning leksik tarkibida, ishlatilishida, semantikasida, morfologik, sintaktik tuzilishida mavjudligini sharhlab beradi. A.V.Kunin frazeologik turg'unlikni quyidagi turlarga ajratadi [Kunin, 1972. 288]:

- 1) struktural-semantik turg'unlik;
- 2) semantik turg'unlik;
- 3) FBlar komponentlarining turg'unligi;
- 4) sintaktik turg'unlik;
- 5) ishlatilishidagi turli-tumanlik.

Ko'rinib turibdiki, A.V.Kunin frazeologik iboralarni yuqorida ko'rsatilgan jihatlarga ko'ra turg'un deb hisoblaydi, bu esa qaysidir ma'noda iboralarda variantlilik hodisasi chegaralangan degan xulosaga olib keladi.

Ya.P.Ignatovich, T.N.Fedulenkovalar esa tilda frazeologik variantlilikning mavjudligini ta'kidlagan holda, iboralarda variantlilikning quyidagi turilarini farqlashadi:

1. Leksik variativlik
2. Leksik-morfologik variativlik
3. Kvantativ variativlik
4. Leksik-kvantativ variativlik

5. Sintaktik variativlik
6. Leksik-sintaktik variativlik
7. Sintaktik-kvantativ variativlik

Shuningdek, mualliflar maqolada ingliz tili frazemalarida eng ko'p variantlilik foizi leksik variantlilik ekanligini aniqlashgan.

Frazeologik birliklarda variantlilik masalasi Y.I.Dibrova, Y.Y.Titarenko, Y.Y.Balaskaya, G.Xidirova, O.A.Romanova, N.Jumabekova, S.Dobias, M.Xladnik tomonidan turli planda tadqiq etilgan. Barcha tadqiqotlarda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash metodlari ustunlik qiladi. Tanlangan obyektidan qo'lda saralab olingan iboralardagi variantlilik hodisasi kuzatiladi, tahlil qilinadi; ularning morfologik, sintaktik, leksik variantlari, grammatik paradigmasi va sinonimlarining mavjudligi (agar mavjud bo'lsa) haqida xulosa chiqariladi.

Tilshunoslikda shu vaqtga qadar frazeologik birliklarning variantlarini aniqlashda korpus yondashuviga asoslangan tadqiqotni uchratmadik. Aslida, til korpuslarida frazemalar teglangan bo'lsa yoxud n-gram funksiyasi mavjud bo'lsa, frazemalarning grammatik, leksik varianti hamda grammatik paradigmasini aniqlash mumkin hamda bu tahlil natijalari yanada aniqroq ekanligi bilan ishonchli sanaladi. Quyida o'zbek tilida korpusi qidiruvi natijasi hamda o'zbek tilining frazeologik lug'atidagi ayrim iboralarning morfologik shakllari va grammatik variantlarini tahlil qilamiz.

*O'zbek tili frazemalarining grammatik variantlari, ularning lisoniy qiymati va lug'atni boyitish imkoniyatlariga korpus yondashuvi*

Frazeologik lug'atda *abjag'ini chiqarmoq* iborasining 1 ta morfologik shakli ko'rsatilgan: *abjag'i chiqdi*. Ammo o'zbek tili korpusi qidiruvi natijasida mazkur iboraning quyidagi 10 ta morfologik shakli aniqlandi:

- abjag'i chiqqan*
- abjag'i chiqib*
- abjag'ing chiqqan*
- abjag'i chiqdi*
- abjag'ingni chiqaraman*
- abjag'imni chiqarib*
- abjag'ini chiqar*
- abjag'ini chiqarganga*
- abjag'ini chiqargan*
- abjag'ini chiqaradi*

Olingan natijalardan ko'rinadiki, bu iboraning ikkala komponentida ham morfologik shakllar o'zgarib qo'llanishi mumkin.

“abjag‘(i)” qismi turli egalik va kelishik shakllarini, “chiqarmoq” shakli esa zamon, sifatdosh, ravishdosh shakllarida qo‘llangan. Ibora turli morfologik shakllarda uchragan bo‘lsa-da, grammatik variant hosil qilmagan.

“Andaza olmoq” iborasi esa frazeologik lug‘atda keltirilmagan. Lug‘atning kirish qismida “mazkur lug‘atda faqat yuqori chastotali yoki sinonimik, antonimik juftlari, variantlari mavjud ibora keltirilgan deyiladi” [Rahmatullayev, 1978. 13-15]. Ammo korpusdagi qidiruv natijasi ko‘rinadiki, o‘zbek tilida “andaza olmoq” iborasi quyi chastotali emas. Korpusda bu iboraning quyidagi morfologik shakllari aniqlandi:

*andaza olish*  
*andaza olgan*  
*andaza olsa*  
*andaza olgandek*  
*andaza olingan*  
*andaza olgin*  
*andaza oladi*  
*andaza oladigan*  
*andaza olinayotganidan*

Shu asosda mazkur iborani ham frazeologik lug‘atga kiritish maqsadga muvofiq.

Frazeologik lug‘atda “aksiga olib” iborasi mavjud emas. Korpus qidiruvida esa uning quyidagi ikki morfologik shakli aniqlandi:

*aksiga olib*  
*aksiga olgandek*

Frazeologik lug‘atda “aql bovar qilmas”, “aql boqar qilmaydigan” kabi vayanako‘plab morfologik shakllarda uchraydigan ibora mavjud emas. Vaholanki, bu ibora mazkur korpusda juda yuqori chastotaga ega: 26 marta qo‘llangan:

<i>aql bovar qilmaydigan</i>	<i>aqlim bovar qilmaydi</i>
<i>aql bovar qilmas</i>	<i>aqlim bovar qilmaydi</i>
<i>aql bovar qilmaydi</i>	<i>aqlim bovar qilmayapti</i>
<i>aql bovar qilmas</i>	<i>aqli bovar qilmasdi</i>
<i>aql bovar qilmaydigandek</i>	<i>Aqling bovar qilmaydi</i>
<i>aql bovar qilmaydigan</i>	<i>aqlim bovar qilmayapti</i>
<i>aqli bovar qilmas</i>	<i>aql bovar qilmasdi</i>
<i>aql bovar qilmaydi</i>	<i>aqlim bovar qilmay</i>
<i>aqlim bovar qilmasdi</i>	<i>aql bovar qilib</i>

<i>aqli bovar qilmaydi</i>	<i>aql bovar qiluvchi</i>
<i>aqli bovar qilmay</i>	<i>aql bovar qiladigan</i>
<i>aql bovar qilmovchi</i>	<i>aql bovar qilishimiz</i>
<i>aql bovar qilmaydiya</i>	<i>aql bovar qilmaydiganlikdan</i>
<i>aql bovar qiladimi</i>	<i>aql bovar qilmay</i>

Hatto ro'yxatda bu iboraning bo'lishli/bo'lishsiz shakllarining uchrashi mazkur iboraning grammatik variantining mavjudligini ko'rsatadi. Shu sababli bu iborani ham frazeologik lug'atga kiritish maqsadga muvofiq.

Lug'atda *barmog'(i)ni tishlamoq* iborasining ma'nosi keltirilgan, ammo morfologik shakli yoki grammatik variantlari keltirilmagan [Rahmatullayev, 1978. 32]. Korpus qidiruvida uning quyidagi berilgan 17 ta morfologik shaklini aniqladik:

<i>barmog'imni tishlamayin</i>	<i>barmog'ingni tishlama</i>
<i>barmog'in tishlar</i>	<i>barmog'ini tishlaydi</i>
<i>barmog'in tishlab</i>	<i>barmog'ini tishlasa</i>
<i>barmog'in tishlagay</i>	<i>barmog'imni tishlasam</i>
<i>barmog'ini tishlaganicha</i>	<i>barmoqlarini tishlab</i>
<i>barmoq tishlab</i>	<i>barmog'ini tishlay</i>
<i>barmog'ini tishlab</i>	<i>barmoqlarimni tishlardi</i>
<i>barmog'ini tishla</i>	<i>barmoqni tishlashning</i>
<i>barmog'in tishlabon</i>	

Topilgan misollar orasida bu iboraning ikki xil grammatik varianti borligi aniqlandi:

1) iboraning bo'lishli/bo'lishsiz shakli: *barmog'ingni tishlama* // *barmog'ini tishlasa*;

2) ibora komponentida grammatik shakl o'zgarishi asosida grammatik ma'noning o'zgarishi:

lug'atda *bahri dil(i)ni ochmoq* iborasining ma'nosi keltirilgan, ammo morfologik shakli yoki grammatik variantlari keltirilmagan. O'zbek tili korpusida bu iboraning quyidagi paradigmasi aniqlandi:

<i>bahri-dilim ochilib</i>	<i>bahring ochiladi</i>
<i>bahrini ochadi</i>	<i>bahri-dilini ochardi</i>
<i>bahri-dili ochilgan</i>	<i>bahri-dilini ochib</i>
<i>bahri-dili ochilib</i>	<i>bahri-dilini ocholmasdi</i>
<i>bahri-dilingiz ochiladi</i>	<i>bahri-dilim ochildi</i>
<i>bahri-dilingni ochadi</i>	<i>bahri-dilini ochadi</i>
<i>bahridilini ochadi</i>	<i>bahri-dilingizni ochadi</i>
<i>bahri-dili ochiladigan</i>	<i>bahri ochiladi</i>
<i>bahri ochilib</i>	

Topilgan misollar orasida bu iboraning leksik varianti borligi aniqlandi: *bahring ochiladi // bahri-dilim ochildi*. Bir shaklda *dil* so'zi tushib qolgan. Demak, leksik variant hosil bo'lgan. Bu iboraning leksik variantini lug'atda aks ettirish maqsadga muvofiq.

*Til korpusi vositasida o'zbek tili frazemalarining leksik variantlarini aniqlash va ularni lug'atda aks ettirish.*

Yuqorida sharhlangan adabiyotlardan ma'lum bo'ladiki, jahon tilshunosligida frazeologizmlarda variantlilik masalasi qator olimlar diqqatini tortgan. Shunday kelib chiqib, bu masala ham o'zbek tilida tadqiq etilishi kerak deb hisoblaymiz. O'zbek tilida frazeologik birliklarning variantlilik xususiyati haqida ayrim fikrlar bildirilgan [Nasirov, 2014. 9-11]. Shuningdek, frazemalarda kontaminatsiya hodisasi ham o'rganilgan. Sh.A.Ganiyeva esa frazeologik birliklarning sintagmatik tadqiqi sirasida ularning variantliliigi masalasiga yo'l-yo'lakay to'xtalgan. M.M.Tilavova, K.Odilovalar ingliz tilida frazeologik birliklarning variativligi va tarjimada semantik muammolarni tadqiq etgan.

Korpusdan n-gram qidiruvi asosida frazemalarni topish yordamida "azob chekmoq" iborasining yuqori chastotali birlik ekanligi hamda uning varianti mavjudligi aniqlandi. Quyidagi uning barcha morfologik shakllarini keltiramiz:

azob chekayotgan  
azob cheksa  
azob chekmang  
azob chekib  
azob chekyapti  
azob chekkan  
azob chekkandan  
azob chekishmasin  
azob chekayotgani  
azob chekkani  
azob chekadi  
azob chekkanlari  
azob chekdilar  
azob chekuvchi  
azob chekayotganlarga  
azob chekkanini  
azoblarini chekkani  
azob cheka  
azob chekasiz  
azob chekasizmi



azob chekayotganligini  
azob chekmoqda  
azob chekdi  
azob chekmoqdamiz  
azob chekdim  
azobini chekdik  
azob-uqubatlariga chek  
azob chekishni  
azob chekmaayotgan  
azob chekishi  
azobini chekkan  
azob chekmasligi  
azob chekishadi  
azob chekishga  
azob chekishgan  
azob chekibdi  
azob-uqubat chekkan  
azoblar chekib  
azob chekayotganini  
azob chekardik  
azob chekayotganlar  
azob chekmoq  
azob cheksin  
azob chekish  
azob chekishini  
azob chekayotganiga  
azob chekishining  
azob cheksangiz  
azob chekishiga  
azoblariga chek  
azob chekayotir  
azobini chekayotganini  
azob chekishlari  
azob chekding  
azob chekuvchilar  
azobin chek  
azob chekadigan  
azobini chekib  
azob chekadilar  
azoblarga chek  
azob cheksam

azob chekkanligimizni  
azob chekmaslik  
azobini chekdim  
azob chekkandi  
azob chekar  
azob chekayotganidan  
azobini chekishadi  
azob-uqubatlar chekkanini  
azob chekarkanman  
azob chekyapmiz  
azob chekayotgandir  
azob chekardim  
azoblarini chekdi  
azoblarimga chek  
azob-uqubat chekadilar  
azob chekardi  
azob chekardiyam  
azob chekamiz  
azobuqubat chekishga  
azob chekkanikin  
azob chekaman  
azob-uqubat chekib  
azob chekishdi  
azob chekmasdi  
azob chekyapsiz  
azob chekdik  
azobi chekib  
azob-uqubat chekish  
azob chekishdan  
azobi chekayotganini  
azobini chekayotgan  
azob chekkanliginini  
azob-uqubatlar chekkandan  
azob-uqubatlar chekib  
azob chekmadimi  
azobuqubat chekmagan  
azobuqubat chekayotgan  
azobini chekaverganidan  
azobni chekmaslikni  
azob chekmasmikin  
azoblar chekishlarini

azobini chekmoqdasan  
azob chekishim  
azob chekmaganini  
azob chekmasin  
azob chekkanlar  
azob chekmog'i  
azob chekmadim  
azob chekishadi-bu  
azob chekayotganliklarini  
azob chekayotganday  
azob chekishda  
azob-uqubat chekishiga  
azob chekadiganlar  
azob chekishmaydi  
azob chekkanmiz  
azob chekadiki  
azob-uqubat chekkanidan  
azob chekmasliklarini  
azob chekayotgandi

Ro'yxatdan ko'rinadiki, mazkur iboraning variantlari sifatida "azob chekmoq", "azob-uqubat chekmoq" kabi birliklarni farqlash mumkin. Bu yerda so'z sonida farq mavjudligi sababli bu variantni leksik variant deb qabul qilamiz.

Keyingi misolda "jafu chekmoq", "jafu alam chekmoq" kabi varianti mavjud bo'lgan iborani tahlil qilamiz:

jafu-alam chekkanlari	alam chekishdan
alam chekayotgan	alam chektiradi
alam chekmak	alam-iztirob chekkan
alami cheksiz	alam chekib
alamini chekkan	alam chekdim
alam cheksa	qayg'u-alam chekadi
alamlarni chekayotganimiz	alam chekadi
alam chekdi	alamini chekmagani

Boshqa bir misolda past chastotali iboraning ham variantdoshlari mavjudligini ko'rdik. "anqoning urug'i" iborasi mazkur korpusda past chastotada uchragan bo'lsa-da (mazkur ibora korpusda atigi 5 marta uchradi), uning "anqoning urug'i", "anqoning tuxumi" kabi leksik varianti, "anqoning urug'iday", "anqoning urug'idek" kabi morfologik varianti aniqlandi.

anqoning urug'i  
anqoning urug'iday  
anqoning urug'idek  
anqoning urug'iga  
anqoning tuxumi

Boshqa bir misolda bir iboraning 3 ta varianti mavjudligi aniqlandi:

aql-hushimni tanib  
aqlimni tanibmanki  
aqlimizni tanigan  
aqlini tanishi  
aqlini tanibdiki  
aql taniganlar  
aqlimni taniganimdan  
aqlini tanigani  
aqlini tanigan  
aqlini taniy  
aqlimni taniy  
aqlni taniy  
aqlini tanib  
aql-hushimni tanigandan  
aqlingni tanibsanki  
aqlini tanir-tanimas  
aqlingizni tanib  
aqlimni tanigan  
aqlimni taniganimda  
aqlini tanishidan  
aqlini tanimaganda  
aqlini tanimagan

Mazkur ro'yxatdan "aqlini tanir-tanimas", "aql-hushimni tanigandan", "aqlimni tanibman" kabi variantlarini farqlash mumkin.

Xulosa o'rnida quyidagilarni belgilash lozim:

Birinchidan, o'zbek tili korpusida iboralar qidiruvi asosida ma'lum bir iboraning morfologik shakllari paradigmasini hosil qilish mumkin. Shu kunga qadar o'zbek tili iboralarining nutqda qanday morfologik shakllarda uchrashi aniqlanmagan.

Ikkinchidan, korpus qidiruvi natijasida o'zbek tili iboralarining variantini aniqlash hamda bu variantlarni o'zbek tilining frazeologik lug'atiga kiritish maqsadga muvofiq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- Dekatova, Kristina. Variability of Political Phraseological Units // Vestnik of Northern (Arctic) Federal University. Series Humanitarian and Social Sciences. – 2023. – С. 47-55.
- Dobias, Sarah. Variability of Proper Noun Idioms in Different Varieties of English. – 2020. – 10.15452/OJoEP.2020.12.0005.
- Hladnik M. Variability in the Syntax of Idioms. – 2017. – Vol. 14 (2). – С. 25-37.
- Авалиани Ю.Ю., Ройзензон Л.И. О разграничение синонимии и вариантности в области фразеологических единиц // Вопросы фразеологии и составления фразеологических словарей. – Баку, 1968. – С. 72.
- Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л., 1963. – С. 100.
- Белобородова А. В. Вариативность фразеологических единиц, репрезентирующих концепт «безразличие» в русском и английском языках // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2009. – № 1 (3). – С. 27-29.
- Глинсон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. – М., 1959. – С. 381.
- Диброва Е.И. Вариативность фразеологических единиц в современном русском языке. – Ростов-на-Дону: Изд-во Рост. ун-та, 1979. – 192 с.
- Жумабекова Н.М. Вариативность зоонимических глагольных фразеологических единиц в английском и кыргызском языках: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Бишкек, 2010. – 22 с.
- Зиннатуллина Л.М. Вариантность адвербиальных фразеологических единиц в английском и русском языках // Litera. – 2019. – № 4. – С. 17-25.
- Камаева Р.Б. Вариантность фразеологических единиц в современной татарской прозе // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2016. – № 6 (60). – Ч. 3. – С. 98-101.
- Камаева Р.Б. Семантические особенности фразеологических единиц (на материале татарской современной прозы) // В мире научных открытий: социально-гуманитарные науки. – Красноярск: Изд-во «Научно-инновационный центр», 2015. – № 11 (71). – С. 236-244.
- Кеулимжаева У. Лексическая вариантность фразеологических

единиц в русском и каракалпакском языках // Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке. – 2022. – Вып. 1. – С. 91-93.

Кунин А.В. Основные понятия английской фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря. Дис. док. филол. наук. – М., 1964. – С. 442.

Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М., 1972. – С. 288.

Насиров А. Фразеологик бирликлар ва провербиал фразеологизмларга хос белгилар // *Oriental Studies*. – 2015. – № 4. – Б. 64-73.

Насиров А.А. Фразеологик бирликлар ва провербиал фразеологизмларда синонимлик ва вариантлик // *Умумтаълим фанлари методикаси*. – Тошкент, 2014. – № 3. – Б. 9-11.

Насиров А.А., Назаров В.Ш. Фразеологик бирликларда контаминация ҳодисаси // *Academic research in educational sciences*. – 2021. – Т. 2. – № 9.

Пауласкене Э.С. Варианты фразеологических единиц в современном английском языке: дисс. канд. филол. наук. – М., 1957. – 323 с.

Попов Р.Н. Фразеологизмы современного русского языка с архаическими значениями и формами слов: учеб. пособие. – М.: Высшая школа, 1976. – 200 с.

Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б. – Б. 13-15.

Романова О.А. О вариантности фразеологических единиц (на материале современных газет) // *Вестник Новгородского государственного университета*. – 2013. – № 72.

Титаренко Е.Я., Балацкая Ю.Ю. Аспектуальность и вариативность глагольных фразеологизмов в русском языке и речи // *Научный диалог*. – 2022. – № 11 (3). – С. 152-170.

Федуленкова Т.Н. Фразеологическая вариантность как лингвистическая проблема // *Вестник ОГУ*. – 2005. – № 4. – С. 62-69.

Хун С.И. Вариативность паремических единиц: прагмалингвистический аспект: дис. канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 177 с.

Шейшенова Н.С. Вариантность фразеологических единиц

глаголов речи русского языка и их кыргызских соответствий // Наука и новые технологии. – 2014. – № 3-4. – С. 144-145.

# THE TRADITIONAL AND CORPUS-BASED APPROACH TO THE STUDY OF MORPHOLOGICAL FORMS AND VARIATIONS OF UZBEK PHRASEOLOGY

Umidjon Yodgorov<sup>1</sup>

**Abstract.** This paper examines the morphological forms and variability of Uzbek phraseological units through traditional and corpus-based analysis. The research emphasizes the phenomenon of variation, a characteristic common to all linguistic units, including phraseological ones. Through the use of linguistic corpora, the study reveals numerous morphological forms and paradigmatic variations of Uzbek phraseological expressions that are not covered in traditional dictionaries. The findings suggest that Uzbek phraseological units demonstrate significant lexical and grammatical variability, enhancing the richness of the language. The study also highlights the limitations of traditional lexicographic approaches in capturing the full range of phraseological variation and suggests the necessity of integrating corpus-based methods into the study of phraseology.

**Keywords:** *Uzbek phraseology, morphological forms, variability, traditional approach, corpus analysis, lexical variation, grammatical variation, linguistic corpora, phraseological units.*

## References

- Dekatova, Kristina. Variability of Political Phraseological Units // Vestnik of Northern (Arctic) Federal University. Series Humanitarian and Social Sciences. – 2023. – S. 47-55.
- Dobias, Sarah. Variability of Proper Noun Idioms in Different Varieties of English. – 2020. – 10.15452/OJoEP.2020.12.0005.
- Hladnik M. Variability in the Syntax of Idioms. – 2017. – Vol. 14 (2). – S. 25-37.
- Avaliani Yu.Yu., Royzenzon L.I. O razgranichenie sinonimiki i variantnosti v oblasti frazeologicheskix yedinis // Voprosi frazeologii i sostavleniya frazeologicheskix slovarey. – Baku, 1968. – S. 72.

---

<sup>1</sup>*Yodgorov Umidjon* - Teacher of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** [yodgorov@navoiy-uni.uz](mailto:yodgorov@navoiy-uni.uz)

**ORCID:** 0000-0001-6704-2879



- Amosova N.N. Osnovi angliyskoy frazeologii. – L., 1963. – S. 100.
- Beloborodova A. V. Variativnost frazeologicheskix yedinis, reprezentiruyushix konsept «bezrazlichie» v russkom i angliyskom yazikax // Filologicheskie nauki. Voprosi teorii i praktiki. – Tambov: Gramota, 2009. – № 1 (3). – S. 27-29.
- Glinson G. Vvedenie v deskriptivnyu lingvistiku. – M., 1959. – S. 381.
- Dibrova Ye.I. Variativnost frazeologicheskix yedinis v sovremennom russkom yazike. – Rostov-na-Donu: Izd-vo Rost. un-ta, 1979. – 192 s.
- Jumabekova N.M. Variativnost zoonimicheskix glagolnix frazeologicheskix yedinis v angliyskom i kirgizskom yazikax: Avtoref. diss. kand. filol. nauk. – Bishkek, 2010. – 22 s.
- Zinnatullina L.M. Variantnost adverbialnix frazeologicheskix yedinis v angliyskom i russkom yazikax // Litera. – 2019. – № 4. – S. 17-25.
- Kamaeva R.B. Variantnost frazeologicheskix yedinis v sovremennoy tatarskoy proze // Filologicheskie nauki. Voprosi teorii i praktiki. – Tambov: Gramota, 2016. – № 6 (60). – Ch. 3. – S. 98-101.
- Kamayeva R.B. Semanticheskie osobennosti frazeologicheskix yedinis (na materiale tatarskoy sovremennoy prozi) // V mire nauchnix otkritiy: sotsialno-gumanitarnie nauki. – Krasnoyarsk: Izd-vo «Nauchno-innovatsionniy sentr», 2015. – № 11 (71). – S. 236-244.
- Keulimjayeveva U. Leksicheskaya variantnost frazeologicheskix yedinis v russkom i karakalpakskom yazikax // Renessans v paradigme novatsiy obrazovaniya i texnologiy v XXI veke. – 2022. – Vip. 1. – S. 91-93.
- Kunin A.V. Osnovnie ponyatiya angliyskoy frazeologii kak lingvisticheskoy dissiplini i sozdanie anglo-russkogo frazeologicheskogo slovarya. Dis. dok. filol. nauk. – M., 1964. – S. 442.
- Kunin A.V. Frazeologiya sovremennogo angliyskogo yazika. – M., 1972. – S. 288.
- Nasirov A. Frazeologik birliklar va proverbial frazeologizmlarga xos belgilar // Oriental Studies. – 2015. – № 4. – B. 64-73.
- Nasirov A.A. Frazeologik birliklar va proverbial frazeologizmlarda sinonimlik va variantlilik // Umumta'lim fanlari metodikasi. – Toshkent, 2014. – № 3. – B. 9-11.
- Nasirov A.A., Nazarov V.Sh. Frazeologik birliklarda kontaminatsiya

- hodisasi // Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – № 9.
- Paulaskene E.S. Varianti frazeologicheskix yedinis v sovremennom angliyskom yazike: diss. kand. filol. nauk. – M., 1957. – 323 s.
- Popov R.N. Frazeologizmi sovremennogo russkogo yazika s arxaicheskimi znacheniyami i formami slov: ucheb. posobie. – M.: Visshaya shkola, 1976. – 200 s.
- Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 407 b. – B. 13-15.
- Romanova O.A. O variantnosti frazeologicheskix yedinis (na materiale sovremennix gazet) // Vestnik Novgorodskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2013. – № 72.
- Titarenko Ye.Ya., Balaskaya Yu.Yu. Aspektualnost i variativnost glagolnix frazeologizmov v russkom yazike i rechi // Nauchnyy dialog. – 2022. – № 11 (3). – S. 152-170.
- Fedulenkova T.N. Frazeologicheskaya variantnost kak lingvisticheskaya problema // Vestnik OGU. – 2005. – № 4. – S. 62-69.
- Xun S.I. Variativnost paremicheskix yedinis: pragmalingvisticheskii aspekt: dis. kand. filol. nauk. – Krasnodar, 2007. – 177 s.
- Sheyshenova N.S. Variantnost frazeologicheskix yedinis glagolov rechi russkogo yazika i ix kirgizskix sootvetstviy // Nauka i novie texnologii. – 2014. – № 3-4. – S. 144-145.

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

**Manzil:** Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos  
Hojib ko'chasi 103-uy.  
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.  
Website: [compling.tsuull.uz](http://compling.tsuull.uz)  
E-mail: [kompling@navoiy-uni.uz](mailto:kompling@navoiy-uni.uz)

Bosishga \*\*.\*\*.\*-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.  
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.  
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.  
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,  
58-a harbiy shaharcha.